



Vaxabov A.V.,
Zaxidova Sh.Sh.

**OLIV TA'LIM XIZMATLARI SIFATI
VA RAQOBATBARDOSHLIGINI
OSHIRISHNING USTUVOR
YO'NALISHLARI**

Ush 2

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Vaxabov A.V., Zaxidova Sh.Sh.

**OLY TA‘LIM XIZMATLARI SIFATI
VA RAQOBATBARDOSHLIGINI
OSHIRISHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI**

Monografiya

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2024**

UO'K: 331.5(575.1)

KBK: 74.58

V 33

Vaxabov A.V., Zaxidova Sh.Sh.

Oliy ta'lim xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari [Matn]: monografiya / A.V. Vaxabov, Sh.Sh. Zaxidova. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 282 b.

Ilmiy monografiyada oliy ta'lim bozorining shakllanishi va amal qilish xususiyatlarining ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan, oliy ta'lim muassalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi xalqaro reyting ko'rsatkichlari tizimi va ularning tarkibiy komponentlari tahlil etilgan. Jahon amaliyotida oliy ta'lim sifatini yaxshilashning ustuvor yo'nalishlarini qiyosiy taqqoslangan, oliy ta'limda reyting tizimini joriy etilishi zaruriyati yoritilgan va uning hozirgi holati baholangan, xalqaro andozalarga mos keluvchi universitetlarni shakllanishi va rivojlanishidagi muammolar aniqlangan.

Ilmiy monografiya oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyoti, ularning qamrov darajasi va sifatini oshirish, universitetlarning xalqaro reyting ko'rsatkichlari yaxshilash muammolari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, doktorantlar, professor-o'qituvchilar, magistrantlar va amaliyotchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

R.A. Alimov – O'zMU professori, i.f.d.

G.B. Yusupxodjayeva – TDTU professori, DSc

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-texnik kengashi tomonidan 2024-yil 25-oktyabrdagi 10-sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-291-9

© Vaxabov A.V., Zaxidova Sh.Sh.
© "Bookmany print" nashriyoti, 2024.

KIRISH

Jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida taraqqiy etgan mamlakatlarda ta'lim sifatini yaxshilash, inson kapitalini taraqqiy ettirish, milliy iqtisodiyotni innovasion rivojlanish yo'liga o'tkazish, jumladan, uning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush darajasini yuksalishining muhim sharti bo'lib qolmoqda. iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda ta'limning qamrov darajasini oshirish va uni sifatini yaxshilashga ustuvorlik qaratilmoqda. Jumladan, 25-34 yoshdagi aholi tarkibida oliy ma'lumotlarning ulushi bo'yicha Koreya Respublikasi (69,8 foiz), Kanada (64,4 foiz), Rossiya (62,1 foiz), Yaponiya (61,5 foiz) kabi mamlakatlar jahonda etakchi o'rinlarni egallaydilar. ¹ Ushbu mamlakatlar amaliyotida oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, mutaxassislar malakasini o'zgarib borayotgan mehnat bozori talablariga moslashtirish, rivojlanayotgan innovasion iqtisodiyotda faol ishtirok etishga layoqatli va aholi farovonligini ta'minlashga qodir yuqori kasbiy malakali ko'nikmaga ega bo'lgan etuk kadrlarni tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini takomillashtirish va ularning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik qaratilmoqda. Jumladan, innovasion iqtisodiyotni rivojlanishi sharoitida oliy ta'lim xizmatlarining qamrov darajasini oshirish, uning sifatini takomillashtirish, jumladan, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting baholash tizimlaridagi tutgan o'rnini yaxshilashning ilmiy-nazariy echimlarini topish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, oliy ta'lim muassasalarining nufuzli xalqaro reytinglarga kirishini ta'minlash, jumladan, ularni bosqichma bosqich akademik va moliyaviy sohadagi mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilmoqda. Ushbu holat oliy ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari

¹ Population with tertiary education. <https://data.oecd.org/Chart/5HC6>

oʻrtasidagi sogʻlom raqobat kurashini ragʻbatlantirish bilan birgalikda, taʼlim sifatini oshirish imkonini beradi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oʻrta muddatli istiqbolda “oliy taʼlim bilan qamrov darajasini 50 foizga etkazish va taʼlim sifatini oshirish, 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy taʼlim muassasasini QS va THE kirishini taʼminlash, nodavlat oliy taʼlim tashkilotlari sonini kamida 50 taga etkazish”² kabi qator ustuvor vazifalar belgilab berildi. oʻrta muddatli istiqbolda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan islohotlar bugungi kunda mamlakatimizda oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini yaxshilash, ularning xalqaro reytinglardagi ishtirokini kengaytirish oʻz echimini kutayotgan dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega boʻlgan muammolar qatoriga kirishini anglatadi.

Tadqiqotning maqsadi universitetlarning xalqaro reyting koʻrsatkichlarini oshirish asosida kadrlar raqobatbardoshligi, taʼlim sifatini yaxshilashga qaratilgan tizimli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- oliy taʼlim bozorining shakllanishi va amal qilishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil etish;
- oliy taʼlim muassalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi xalqaro reyting koʻrsatkichlari tizimi va ularning tarkibiy komponentlarini qiyosiy taqqoslash;
- jahonda oliy taʼlim sifatini yaxshilash islohotlarini amalga oshirishni ustuvor yoʻnalishlarini qiyosiy tadqiq etish;
- oliy taʼlimda reyting tizimini joriy etilishi, holatini baholash va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;
- xalqaro andozalarga mos keluvchi universitetlarni shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va muammolarini tahlil etish;
- jahon amaliyotida milliy reytingni aniqlash amaliyotini shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash;
- Oʻzbekistonda oliy taʼlim tizimini isloh etish va oliy taʼlim muassasalarida reyting tizimini joriy etishning huquqiy - institusional asoslarini tadqiq etish;

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони, 28.01.2022 й. <https://lex.uz/doCs/5841063>

- oliy ta'lim muassasalarini davlat tomonidan moliyalashtirish, jumladan ularga moliyaviy va akademik sohalardagi mustaqillikni berishning ustuvor yo'nalishlarini tahlil etish;

- "Covid-19" pandemiyasining oliy ta'lim tizimi sifatiga ta'sirini baholash;

- O'zbekistonda oliy ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash va raqobatbardoshligini oshirish xolatini baxolash va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari, ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

- uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi ishtirokini faollashtirish bo'yicha muqobil ssenariyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, qiyosiy taqqoslash, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish usullari qo'llanilgan.

Ilmiy monografiya o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqqan holda tarkibiy jihatdan kirish, mantiqan o'zaro bog'langan to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Tadqiqot ishining **«Oliy ta'lim xizmatlari bozori rivojlanishining nazariy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi, uning amal qilish xususiyatlari, xalqaro darajada univyersitetlarning reytinglari va ushbu reyting ko'rsatkishlari tizimining shakllanishi, jumladan, ularning rivojlanish bosqishlari tahlil etilgan. Shu bilan birgalikda, universitet raqobatbardoshligi, uning reyting ko'rsatkishlariga ta'sir etuvshi omillar tizimli tahlil etilgan holda turli guruhlariga ajratilgan.

Ilmiy monografiyaning ikkinchi bobi **«Jahonda oliy ta'lim reyting tizimini joriy etish holati va rivojlanish tendensiyalari»** deb nomlanib, ushbu bobda universitetlar reytingini baholashning ilg'or xorij amaliyoti G'arbiy Yevropa, Sharqiy Osiyo va MDH mamlakatlari misolida qiyosiy taqqoslanilgan holda, ulardan mamlakatimiz oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda ijodiy foydalanish imkoniyatlarni aniqlangan.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi «**O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini isloh etish yo‘nalishlari**» deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda mamlakatimizda oliy ta’lim xizmatlari ko‘rsatishning holati, mahalliy universitetlar reytingini baholash amaliyoti tahlil etilgan, O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari reyting tizimini joriy etishning huquqiy-institusional asoslari o‘rganilib, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirishda davlatning o‘rni, oliy ta’lim muassasalarining akademik va moliyaviy sohadagi mustaqilligini ta’minlash yo‘nalishlari baholanib, ushbu sohadagi mavjud imkoniyatlar aniqlangan, “Covid-19” pandemiyasining jahon, jumladan, O‘zbekiston oliy ta’lim xizmatlari bozoriga ta’sir doiralari ijobiy va salbiy jihatlari tadqiq etilgan.

Ilmiy monografiyaning «**O‘zbekistonda oliy ta’lim xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida reyting tizimini joriy etish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirishdagi muammolar aniqlanib, ularni hal etish yo‘nalishlari ilmiy asoslangan. Uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari faoliyati va ta’lim sifatini jahon standartlariga moslashtirish imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan, jumladan, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda universitetlarning sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ilmiy asoslangan prognoz ko‘rsatkichlariga muvofiq rivojlanishning muqobil ssenariyalari batafsil yoritib berilgan.

Ilmiy monografiyaning xulosa qismida amalga oshirilgan monografik, statistik va analitik, ekonomiyetrik tahlillar natijasida ilmiy xulosalar olingan, universitetlar reytingini oshirish, jumladan, oliy ta’lim xizmatlarining sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy taklif va amali tavsiyalar ishlab chiqilgan.

I BOB. OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORI RIVOJLA-NISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Oliy ta'lim bozorini shakllanishi va amal qilishi xususiyatlari

Bozor munosabatlari sharoitida mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishini ta'lim sohasining tegishli tadbirlar tizimida o'qitish shaklini isloh qilish, jumladan, ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi, turli oliy o'quv yurtlarining o'quv – metodik ta'minotidagi, ta'lim xizmatlari ko'rsatish modelining tashkiliy tuzilishi va uning ayrim elementlari o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlari ta'sirida shakllanib boradi.

Mamlakatda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlana borgan sari, ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyotiga bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi o'zaro raqobat kurashini kuchaytirish orqali ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishiladi. Bunda ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishda uning raqobatbardoshligini oshirish, jumladan, ta'lim xizmatlari ko'rsatishning sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirish, xizmatlar ko'rsatish shart-sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar namoyon bo'lib, xizmatlar ko'rsatishning texnik shart-sharoitlarini yaxshilaydi.

Ta'lim xizmatlari ko'rsatishning texnik shart-sharoitlarini yaxshilanishi fan-texnika taraqqiyotining moddiy ishlab chiqarish, uning texnik va texnologik bazasini rivojlanishi, uning takomillashuviga bo'lgan ijobiy ta'sirida o'z ifodasini topadi. Bunday sharoitda mehnat bozoridagi ish kuchining sifatiga nisbatan ish beruvchilar tomonidan qo'yiladigan talablarning ortishiga sabab bo'ladi. Natijada, mamlakatda kadrlar tayyorlash tizimida shaxsni o'qitish va uni intellektual rivojlantirish zaruriyati vujudga keladi.

Moddiy ishlab chiqarish texnik – texnologik o'zgarishlar ilmiy – texnika rivojlanish asosida sodir bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, xodimlarning kasbiy bilim va malakalarining ortishi, mehnat bozorida aholi bandligi darajasi ko'rsatkichining tarmoq tarkibining

o'zgarishi, axborot mehnati va xizmat ko'rsatish sohaslarini kengaytirish asosida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Natijada, kasbiy ta'lim sohasida turli o'quv yurtlari faoliyatini o'zaro integratsiyalovchi yangicha tashkiliy shakllar, masalan, uzulksiz kasbiy ta'lim markazlari kabi muassasalar tashkil topadi.

Mamlakatimizning ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari mavjud bo'lib, bunda sivilizatsiyalashgan bozorning shakllanishi uchun xo'jalik yuritishning amaldagi tizimini o'zgartirish taqozo etiladi. Bu esa mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat va motivasion muhitning o'zgarishi natijasida jamiyatdagi ijtimoiy harakatchanlik va jamiyat a'zolarining ta'lim tizimini o'zgarishiga bo'lgan ehtiyojini ortishiga olib keladi. Natijada, mamlakatda mehnat sifatini oshirish va ijodiy faoliyatni rivojlantirish, ijtimoiy moslashuv, yangi kasb-hunarga ega xodimlar guruhlarining paydo bo'lishi zarurligi kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti shakllanishi sharoitida talab yuqori bo'lgan yangi mutaxassisliklar va malakali kadrlarni tayyorlash talab qilindi. Ko'psonli marketing, konsalting firmalarining, tijorat banklarining, yuridik idoralarning tashkil etilishi muayyan malakaviy tayyorgarlikka ega yuqori sifatli ish kuchini taqozo etdi.

Jumladan, ishlab chiqarish sohasidagi iqtisodiy inqirozning vujudga kelishi mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi o'zaro muvozanatning buzilishi ko'plab yollanma ishlovchilarning ishsiz qolishiga olib keldi. Kasbiy qayta o'qitish bu kabi mehnatga layoqatli yoshdagi ishsiz qolgan fuqarolarni ijtimoiy himoyalash usullaridan biri hisoblanadi. Bunda tegishli o'quv – moddiy bazaga va yuqori tajribaga ega pedagog kadrlarga kasb-hunar ta'limi muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy adabiyotda aholining ma'lumoti darajasini o'sishi ularning ish haqining ortishiga olib kelishi borasidagi ko'plab ilmiy qarashlar shakllangan. Ta'lim xizmatlaridan foydalanilgandan so'ng ish haqidagi o'zgarishlar, jumladan, malakali mehnatning mavqei, nufuzi ortishi bozor munosabatlari joriy etilishi hamda mulkchilik shakllari o'zgarishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Bu holat buyurtmachi korxonalar tomonidan xodimlarning kasbiy tayyorgarligi darajasi va ularning sifatiga nisbatan qo'yadigan talab ko'rsatkichlarining ortishiga olib keladi. Bunda ta'lim xizmatlari

ko'rsatishning ahamiyati ortib, iste'molchilarga sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish orqali ularning yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligini ta'minlay oladigan yangi oliy o'quv yurtlarini ochishga bo'lgan ehtiyoj orta boradi.

Iqtisodiy adabiyotda ta'lim xizmatlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi to'g'risida ko'plab ilmiy qarashlar shakllangan. Jumladan, R. Solou texnologiyani sifat jihatidan takomillashtirish, shuningdek, hodimlarning malakasini oshirish dastgohlar va fabrikalar sonini ko'paytirishga qaraganda ancha samaraliroq ekanligini asoslaydi. T. Shuls tadqiqotlarida kambag'al insonni farovonligini oshirish, erga, texnika vositalariga emas, balki bilimi bilan bog'liqligi isbotlangan. L. Torou fikricha, insonlarning mahoratni yillar davomidagi jamg'aralar (ma'lum bir vaqt oralig'idagi tajriba asosida shakllangan bilim va ko'nikmalar) bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida namoyon bo'lib³, bunda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarining sifatini takomillashtirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

L. Torou nazariyasi E. Dolan va Dj. Lindseylar izlanishlarida davom ettirildi. Ular tadqiqotlarida ta'lim olish yoki amaliyot natijasida insonlarda shakllanib boradigan aqliy qobiliyatga asosiy e'tiborni qaratdilar.⁴ Bu esa ta'lim xizmatlari sifatini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga erishish mumkinligini anglatadi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi jamiyatning ta'lim tizimini isloh etish va uning ta'sirchanligini oshirishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyojini yuzaga keltirdi. davlat monopolizmi ta'lim sohasida faoliyat yuritishning samarasiz bo'lishiga olib keladi. Davlat oliy o'quv yurtlari milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlar bo'yicha kadrlar tayyorlash bilan shug'ullandi. Davlat oliy yurtlari qabuli ko'rsatkichlarini shakllantirishda iqtisodiyotning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji muhim rol o'ynamasdi, natijada ish kuchi talab darajagidan ko'p yoki kam tayyorlanishiga olib kelardi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida 1997 yilda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Ushbu me'yoriy hujjatlar ta'lim xizmatlari bozorini

³Turov I. investment in Human Capital. – Belmont, 1970 y. – p. 78

⁴Долан Э., Линдсей Дж. Рынок: микроэкономическая модель. – СПб., 1992 г., - 477 с.

shakllanishining huquqiy asosini tashkil etdi.

XX asrning 90-yillarida iqtisodiy adabiyotda oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlarini tadqiq qilish faollasha boshladi.

Respublika iqtisodchi olimlari ham bozor munosabatlari sharoitida ta'lim xizmatlari va mehnat resurslari bozori bilan o'zaro bog'likligi ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish, moliyalashtirish va ta'limning sifatiy darajalarini oshirish bilan ta'lim xizmatlari xarajatlarini kamaytirish muammolari o'rganilgan va tegishli ilmiy xulosalar berilgan. Jumladan S.S. G'ulomov respublikada ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xosligini o'rganib "ta'lim shunchaki jamiyat xayotining tomonlaridan birigina emas, balki umuman jamiyatni rivojlanishining etakchi tizimini xosil qiluvchi omil bo'lmoqda"⁵, deb hisoblaydi. R.M. Usmanova⁶ tomonidan ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni tashkillashtirish masalalari o'rganilgan bo'lsa, D.X. Nabiev⁷ tomonidan ta'lim sohasidagi investisiyalarni moliyalashtirish masalalarini tadqiq etgan.

M.X. Saidov o'z ilmiy tadqiqotida oliy ta'limni investisiyalash, uning menejmenti va marketingini o'rgangan.⁸ O.A.Ergashev o'z tadqiqotida o'rta maxsus va kasb – xunar ta'limdagi iqtisodiy munosabatlarni o'rganib, ularning ilmiy-amaliy xususiyatlarini tahlil qilgan.⁹ G.N.Axunova o'z ilmiy tadqiqotlarida milliy ta'lim xizmatlari bozorining muvozanatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan marketing konsepsiyasini tadqiq etgan.¹⁰ Ularning fikricha «oliy ta'lim muassasalarining faoliyati ta'lim xizmatlari ko'rsatishning ikki, ya'ni bir tomondan, shaxsning oliy ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyojini

⁵ Гуломов С.С. Образование в Узбекистане, день сегодняшний. М:Алма-метер, 2006 с 20-21.

⁶ Усманова Р.М. Таълим хизматлари бозоридаги иқтисодий муносабатларни такомиллаштириш. И.ф.н. диссертация автореферати. Т. 2012 -24 б.

⁷ Набиев Д.Х. Таълим соҳасидаги инвестицияларни мoliyalashtirish масалалари (Ўзбекистон ўрта-махсус, касб-хунар тизими мисолида) И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати.-Т. 2005.-24б.

⁸ Саидов М.Х. Экономика, инвестиции и маркетинг высшего образования. – Тошкент: Молия, 2002- 331с.

⁹ Эргашев А.О. Таълим тизимининг иқтисодий бошқарув асосларини такомиллаштириш. (Ўзбекистон Республикаси ўрта – махсус, касб-хунар тизими мисолида): - и.ф.н...дис. Автореферати. – Тошкент:ТДТУ,2006. – 24 б.

¹⁰ Ахунова Г.Н. Таълим хизматлари бозорида маркетинг фаолияти ва уни такомиллаштириш. Иқт.фан.док. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент – 2004. 45б.

qondirish; ikkinchi tomondan, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha uchun oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash nuqtai nazaridan turib muhokama etiladi»¹¹ deb ta'kidlaydi. A.X. Eshbaevning fikricha, «... ta'lim tizimining faoliyati jarayonida vujudga keluvchi ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini ifodalaydi».¹²

BMTning YUNESKO tashkiloti «ta'lim» atamasiga o'zida ta'limga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida amalga oshiriladigan, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan va doimiy faoliyatning barcha turlari ma'nosini ifoda etadi degan ta'rif beradi¹³.

Ta'limning yangi shakllari, tuzilmalari mazmuni bilan ta'lim tizimini amalga oshirish mexanizmini, jarayonlariga va malakali vositalariga ega o'ziga xos faoliyat turi sifatidagi boshqarish modeli o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keldi. Ta'lim xizmatlarining ma'muriy–buyruqbozlik tizimidagi bepulligi bozorga xos xo'jalik yuritish qonunlari va prinsiplariga zid edi. Bozor iqtisodiyotid iqtisodiy ne'mat hisoblangan ta'lim xizmatlari qiymatga ega bo'lib, bozor munosabatlari ob'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Rejali iqtisodiyot sharoitida ta'lim sohasiga sarflanayotgan moliyaviy mablag'lar jamiyat a'zolari tekinga foydalanadigan ta'lim xizmatlari qiymatidan kam edi. Almashuvdagi muqobillikning bu tariqa buzilishi ta'lim muassasalari jamoalarining sifatli faoliyat yuritishdan moddiy manfaatdorligini susaytirar edi.

Ma'muriy boshqaruv tizimida xalqaro ta'limni boshqarish ideologiyasining yo'qligi, ta'lim tizimining yopiqligi, oliy ta'limning davlat buyurtmasini bajarishga yo'naltirilganligi bilan izohlanar edi. Bu bir tomondan, erkin harakat qiluvchi talabalarning xoxishiga zid kelsa, ularning o'qishni bir tizimda boshlab boshqasida davom ettirish huquqini cheklasa, boshqa tomondan ilmiy-pedagogik hodimlarni turli mamlakatlarda dars berish huquqini cheklar edi.

¹¹ Ахунова Г.Н. Таълим хизматлари бозорида маркетинг фаолияти ва уни такомиллаштириш: и.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.авторреферати – Т., 2004. – Б. 45.

¹² Эшбоев А.Х. Бозор муносабатларига ўтиш даврида таълим тизимининг миллий иқтисодийотни ривожлантиришига таъсири. и.ф.н. илм. дар. олиш ёзилган дис.авторреферати. – Тошкент., 2008. – Б.8.

¹³ Ижтимоий ҳимоя: атамалар изохли лугати. А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. Т–2007. – Б. 434.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi ushbu ziddiyatlarning echimini topib berdi.

Ta'lim xizmatlari iste'molchilarning ehtiyojini qondirilmaganligi, tufayli aholining unga bo'lgan talabini ortib borishi ta'lim xizmatlari ko'rsatishiga ko'maklashdi. Bepul ta'lim tizimi aholi talab qiladigan ta'lim xizmatlarini cheklangan miqdorda taqdim etishga qodir bo'lib, kishilarning qator kasblarga bo'lgan ehtiyoji, talabi esa oliy o'quv yurtlari taklifidan ziyoddir. Ushbu ehtiyojlarni ta'lim xizmatlari bozori qondirishga qodir bo'lib, to'lov-shartnoma asosida kadr tayyorlash sharoitidagina amalga oshiriladi. Kishilarning bilim qobiliyatlaridagi farqlar kirish sinovlaridan o'ta olmaydiganlarni o'zlarining ta'limga bo'lgan ehtiyojini pulli o'qish yordamida qondirishga majbur etadi.

Shunday qilib, fan – texnika taraqqiyoti taqozo etgan axborot jamiyatiga o'tish, bozor tizimining rivojlanishi davlat monopolizmi sharoitida ta'lim tizimining samarasizligi, o'qitish shakllari bilan metodlari o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishi, ta'lim nufuzining pasayishi va kadrlar tayyorlashning halqaro ta'lim tizimining yopiqligi ta'limning rejali tizimidan bozor tizimiga o'tish uchun shart – sharoit yaratdi.

Ta'lim xizmatlari bozori uning sub'ektlari o'rtasida tovar – ta'lim xizmatlarining oldi – sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimidan iborat.

Ta'lim xizmatlari bozori ichki va tashqi o'zaro aloqalarning turli – tumanligi, murakkabligi bilan tavsiflanadigan murakkab tizimdir. Ta'lim bozori sotiladigan mahsulotni xususiyatiga ko'ra bevosita xizmatlar bozoriga taaluqli bo'lib boshqa bozorlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular bilan o'zaro munosabatda bo'ladi.

Ta'lim xizmatlari bozorida sotuvchi va xaridor sifatida ishtirok etuvchi ta'lim xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar va iste'mol qiluvchilar bo'lishi shart, bunda oldi – sotdi bitimining predmeti – ta'lim xizmatlari hisoblanadi. Ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, ularni ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayoni bir vaqtda to'g'ri kelganligi uchun bizningcha, ta'lim bozorida ushbu xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar – sotuvchi, iste'molchilar esa – xaridor bo'ladi. Ta'lim xizmatlari bozorida muayyan vaqt mobaynida ta'lim xizmatlaridan foydalanishni

istaydigan va bunday imkoniyatga ega bo'ladigan sub'ekt iste'molchi yoki xaridor bo'ladi.

Kishilarning ta'lim muassasalarini tanlashi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida sodir bo'ladi. ob'ektiv omillar oliy o'quv yurti maqomi, o'qitishning iqtisodiy va moliyaviy shartlaridan, hamda ma'lumot olingandan keyingi sub'ektning ijtimoiy holatidan iborat. Sub'ektiv omillar esa kishining tug'ma iste'dodi va shakllanadigan ko'nikma qobiliyatlarini, moyillarini va afzal ko'radigan jihatlarini o'z ichiga oladi.

Iste'molchi ta'lim xizmatlari mazmuni va sifatini tanlar ekan, egallagan ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi mehnat bozorida va mehnat faoliyati davrida mehnat qobiliyatini ishga solishda qanday daromad olishi mumkinligidan kelib chiqadi. Bunday daromad miqdorini u muayyan ta'lim xizmatlaridan foydalanish uchun qilingan xarajatlar bilan qiyoslaydi.

Ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy tanlov mexanizmi orqali, biron – bir oliy o'quv yurtiga kirish to'g'risida qaror qabul qilish ko'rinishida ifodalanadi. Ushbu ehtiyojlarning qondirishi oliy o'quv yurtiga qabul qoidalari, kirayotgan vaqtda mavjud bo'lgan intellektual zaxiralar bilan ushlab turilishi, shuningdek, talabalarning davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanishi borasidagi mavjud siyosat bilan buzilish mumkin.

Iste'molchi tomonidan ta'lim xizmatlaridan foydalanish jarayonida shaxsan qilinadigan quyidagi xarajatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) asosiy va qo'shimcha ta'limga to'lash, o'quv adabiyotlari sotib olish uchun zarur bo'lgan moddiy mablag';

b) bilim, ko'nikmalar va mahorat to'plash uchun sarflanishi talab qiladigan mehnat;

v) ta'lim olayotgan kishi qiladigan qo'shimcha xarajatlar.

Individual iste'molchi ma'lumot olish uchun vaqt va qobiliyatni o'z vaqtidan saloxiyatidan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun muqobil imkoniyatlardan voz kechar ekan, ushbu xarajatlar muvaqqat xarajat bo'lib qoladi. Xarajatlar miqdori iste'molchi o'z shaxsiy zaxiralaridan muqobil ravishda foydalanganda qo'lga kiritish mumkin bo'lgan foyda va boshqa naflar miqdori bilan belgilanadi.

Hozirgi sharoitda ta'lim xizmatlari bozorida oliy ma'lumot tanlar ekan, bu vaqtinchalik salbiy sharoitda sodir bo'lmoqda, chunki,

birinchidan, yoshlarning hozirgi mehnat bozorida ishga joylashish imkoniyati ma'lum darajada cheklangan, ikkinchidan esa, oliy ma'lumotning nufuzi qimmatini diplomni olgan vaqtdan boshlab ega bo'ladigan muayyan ijtimoiy maqomdan iborat bo'lib qolmoqda.

Ta'lim xizmatlari bozorida aksariyat individual iste'molchilar, firmalar va davlatga ta'lim xizmatlarini taklif etuvchi sub'ektlar – ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchilar iste'molchilar bilan yaqin o'zaro munosabatda bo'lishadi.

Ushbu sub'ektlar va ular ko'rsatadigan xizmatlar nuqtai nazaridan ta'lim bozori tarkiban turlicha bo'ladi. Ta'lim bozorida o'zaro munosabatda bo'luvchi davlat va nodavlat sektorini ajratib ko'rsatish mumkin. davlat sektori turli shaklda: qo'shimcha ta'lim uchun to'lov yoki tanlovdan tashqari o'qitish uchun to'lov shaklda namoyon bo'luvchi pullik ta'lim xizmatlaridan iborat.

Mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'tgach, ta'lim xizmatlari bozorini muvozanatlashtirishga xarakat qiladi. Ta'lim xizmatlari iste'molchisi mehnat bozorida orttirilgan kasbiy ko'nikmani ishga solishda olish mumkin bo'lgan foydani puxtalik bilan egallaydi. Ta'lim xizmatlariga bo'lgan haqiqiy ehtiyojdan ushbu xizmatlarni ko'rsatuvchi ta'lim tizimlariga axborot oqimi jadallashadi. Ta'lim muassasalari o'rtasida talabalarni o'qishga jalb etish uchun sodir bo'ladigan raqobat va ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashga ko'maklashadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim xizmatlari iste'molchisi ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatidan manfaatdor bo'ladi.¹⁴ Oliy o'quv yurtlarining, mavqei, obro'si iqtisodiy xolati uning bitiruvchilari mehnat bozorida ishini qanchalik oson topishga bevosita bog'liq bo'ladi. Ushbu holat ta'lim tizimini holati, tarkibi o'qitishning shakl va metodlarini takomillashtirilgan holda mehnat bozori talablariga jiddiy e'tibor bilan munosabatda bo'lishga majbur etadi.¹⁵

Ta'lim bozori amal qilishda bevosta munosabatga kirishuvchi ta'lim xizmatlari xaridorlari va sotuvchilari bilan birgalikda davlat ijtimoiy xarakterdagi muammolarni hal qiluvchi va bozorning

¹⁴ Масалан АКШда битирувчилар сифатсиз касб – малака тайёргарлиги туфайли юзага келган зиёни коплаш даввоси билан ўқув юртларини судга берган пайтлар ҳам бўлган.

¹⁵ Высшая школа России: состояние и проблемы развития. / Гос.Ком РФ по высшему образованию.-М.,1993.-С.29-33

ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi sub'ekt sifatida aralashadi.

Bozor munosabatlari sub'ekti bo'lgan davlat ta'lim xizmatlari sotuvchilaridan, jumladan, davlat ta'lim xizmatlari sotuvchilaridan davlat oliy ta'lim standartlarini, o'quv yurtlarini attestasiya qilish va lisenziyalash, ma'lumot olganligini tasdiqlovchi hujjatlarni sertifikatsiyalashni talab qiladi.¹⁶

Mamlakatlarda mavjud ta'lim tizimi inson kapitalini investitsiyalash sifatida davlat tomonidan moliyalashtirish yo'li bilan qo'llab – quvvatlanadi. davlat huquqiy asosni me'yorlarni, ya'ni «o'yin qoidalarini» belgilab beradi va ta'lim xizmatlari bozorining barcha ishtirokchilari o'z iqtisodiy faoliyatini mavjud qoidalar doirasida olib borishadi.

Davlatning ta'lim xizmatlari bozoridagi roli ijtimoiy ne'mat hisoblangan ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. davlat bozorni tartibga solar ekan, ta'lim xizmatlarining ijtimoiy foydaliligini hisobga olgan holda «bozor talabi istiqboldagi ehtiyojlarni ta'lim xizmatlari qo'lami ko'rinishida ta'lim tizimiga o'tkazishga qodir emaslikni namoyish etadi». Ushbu bozorda «o'ziga taklif etilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini haqiqiy baholashga mutlaqo qodir bo'lmagan» iste'molchi huquqlarni qonuniylashtirish zarurati yuzaga keladi.

O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari xususiyatlaridan biri ta'lim xizmatlari bozorining hali to'liq shakllanmaganidadir. Shu bois davlat ma'muriy – rejali va bozor iqtisodiyotlariga xos bo'lmagan qator masalalarni hal etishga to'g'ri keladi. o'tish davrida davlatning ta'lim bozoridagi siyosati – ustun darajada institusional tartibga solish siyosatidir. Ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishini va samarali faoliyat ko'rsatishining ta'minlovchi institutlar va mexanizmlarni yaratish majburiyati aynan davlat zimmasiga tushadi.

Ta'lim bozoriga katta miqdordagi xususiy investitsiyalar jalb etilgan xolatdagina unda chinakam raqobat muhitini yaratish mumkin bo'ladi. mamlakatimizda bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida ta'lim xizmatlarini taklif etayotgan tashkilotlar o'rtasida

¹⁶ Юрьева Т. Негосударственный вуз как неприбыльная организация. // Российский экономический журнал.-1994.-№7.-С.76.

raqobat munosabatlarini shakllantirishning bozorga xos metodlari – tanlov, tenderlardan foydalana boshlandi. Fikrimizcha, davlat mablag‘larini haqiqiy ishsizlarni qayta tayyorlashni, qisqa muddatda amalga oshiradigan va ishga joylashtirishning yuqori darajasini ta‘minlay oladigan tashkilotlarga olishi lozim.

Ta‘lim xizmatlari bozori aniq informasion ma‘lumotlarni olishga intilmog‘i zarur. Aholi qaysi kasb egasi ishga joylashish uchun qulay imkoniyatlarga egaligi, qaysi o‘quv yurtlari bitiruvchilari mehnat bozorida eng xaridorgir holatda ekanligi haqidagi axborotga ega bo‘lishiga haqlidir. Ushbu masalalarni hal qilish uchun mehnat va ta‘lim xizmatlari bozorini monitoringini amalga oshirish, oliy o‘quv yurtlari reytingini ishlab chiqish va e‘lon qilish zarur. O‘rta istiqbolda mehnat bozorining aniq axborotlar bilan ta‘minlashga oid funksiyalar korxonalariga, oliy o‘quv yurtlariga, ularning uyushmalariga asta – sekin o‘tishga intilish zarur.

Bozor iqtisodiyotida davlat ta‘lim xizmatlari bozorini tartibga solib va nazorat qilib turishi lozim. iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida mamlakat uchun yagona bo‘lgan oliy ta‘lim standartlarini shakllantirish va ularni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishni ta‘minlash zarurati yuzaga keldi.

Shunday qilib, ta‘lim xizmatlarida bozor munosabatlarini rivojlanishi ta‘lim xizmatlari bozori jarayoniga davlat aralashuvi, ta‘lim xizmatlarini tartibga solishni zarurligi, xususiy tadbirkorlik faoliyati cheklangan, raqobat muhitini shakllanganligi va aniq axborotlar bilan ta‘minlash bilan bog‘liq xususiyatlarga ega.

Shunday qilib, ta‘lim xizmatlari bozori faoliyat ko‘rsatish uchun ta‘lim xizmatlaridan foydalanish ehtiyoji bo‘lgan, uni iste‘mol qilishni hohlovchi iste‘molchi, ushbu xizmatlarni ko‘rsatadigan va individual iste‘molchilarga ehtiyoji bo‘lgan ta‘lim muassasasi, ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi bilan iste‘mol qiluvchi o‘rtasida munosabatlarni tartibga soladigan sub‘ekt hisoblangan davlat mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Individual iste‘molchi ta‘lim bozoriga chiqishdan avval o‘qish shakli, metodlari va joyini tanlashi darkor.

Ta‘lim xizmatlari bozori boshqa turdagi bozorlardan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. iqtisodiyotni muxim tarmog‘i bo‘lgan ta‘lim tizimi va unda ishlab chiqariladigan, aholining turli madaniy ehtiyojlarini qondirish, kadrlar salohiyatini takror ishlab

chiqarish va rivojlantirishga mo'ljallangan intellektual mahsulotlarni xususiyatlari bilan belgilangan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda ta'lim bozorida sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar ob'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun iqtisodiy adabiyotdagi mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilamiz. Ayrim iqtisodchilar ta'lim xizmatlari kategoriyasini tadqiq etishda uning mazmuniga aloxida ta'rif bermaydilar. Biroq har qanday iqtisodiy hodisani o'rganishda uning mohiyatini ta'riflash talab qilinadi, ko'rib chiqilayotgan predmetni tushunmaslik esa keyingi tahlillarni olib borishni mantiqini shubha ostiga qo'yadi.

Boshqa ilmiy yondashuvda A.Pankruxin, U.Zinnurovlar tomonidan «ta'lim xizmatlari» ta'lim ishlab chiqarish, bilim, mahorat va ko'nikmalar yig'indisi sifatida ifodalanadi. Kator mualliflar ushbu nuqtai nazarda turib, ta'lim xizmatlari «shaxs, jamiyat, davlatning ta'limga bo'lgan turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalaniladigan bilimlar, mahoratlar, ko'nikmalar tizimidan iborat», deb ta'kidlashadi.¹⁷

Ta'lim xizmatlarini tahlil etishda faqat ishlab chiqarish nuqtai nazaridan yondashmaslik lozim, chunki ular ayirboshlov, taqsimot va iste'mol jarayonlarida ham qatnashadilar. Fikrimizcha, iste'molchi pozitsiyasidan turib bir tomonlama yondashuv ta'lim xizmatlari mohiyati doirasini kamaytiradi.

U.Zinnurov ta'lim xizmatlari deganda «umumta'lim va maxsus xususiyatga ega bilimlar yig'indisi sifatidagi o'quv va ilmiy axborot hajmini, shuningdek, shaxsga muayyan dastur bo'yicha beriladigan amaliy ko'nikmalarni»¹⁸ tushunadi. Shunga qaramay, ta'lim xizmatlari sifati ustun darajada insoning tayyorgarlik darajasi, tug'ma qobiliyatlariga asosan aniqlanadi va talaba sarflagan mehnat miqdoriga bog'liq bo'ladi.

V.P.Shchetkin, N.A.Xromenov, B.S.Ryabushkin kabi iqtisodchilar ta'lim xizmatini o'ziga xos iqtisodiy ne'mat deb hisoblashadi. Ularning ta'kidlashicha, ta'lim xizmatlarining ushbu ta'rifi uning

¹⁷ Панкрухин А.П. Маркетинг образовательных услуг: справочник менеджера образования/- М.: новая школа, 1995.- Т.2.- С.287.

¹⁸ Зиннуров. У.Т. Маркетинг в деятельности вузов: теория и методы решения /М.,1996. – С.312.

mazmunini to'liq ochib beradi. Jumladan, B.S.Ryabushkin: «oliy o'quv yurtlari xodimlari jamiyatning ta'lim xizmatlari deb nomlangan o'ziga xos iqtisodiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishadi»¹⁹, deb yozadi.

Fikrimizcha, ta'lim xizmatlarining foydaligini umumiy va cheklanganga bo'linishi nuqtai nazaridan taxlil qilish zarur. Bir tomondan, ta'lim xizmatlari kishilarning muayyan darajada ma'lumotga ega bo'lishdan iborat shaxsiy ehtiyojlarini qondiradi, shu ma'noda u inson hayotini boyituvchi, uning qiziqishlari doirasini, shaxsning hayot faoliyati, o'zini namoyon etish, soha kengaytiruvchi ma'naviy ne'mat sifatida ta'riflanadi. Ayni mahalda insoning mehnat salohiyati bilan bog'liq holda mehnat faoliyatidan keladigan shaxsiy daromadi uning ta'lim tayyorgarligi darajasi bilan belgilanadi.

Boshqa tomondan esa, ta'lim xizmatlari ijtimoiy ne'matlarga xos sifatlariga ega. Shu ma'noda, aholi ta'lim darajasi o'sishdan jamiyat ega bo'ladigan qo'shimcha samara haqida gap boradi. Kishi o'z kasbiy salohiyatini oshirishdan uning o'zigina emas, balki atrofidagi kishilar ham manfaatdor bo'ladilar. mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va xalq farovonligi sivilizasiyalashgan madaniy turmush sohasini shakllantirish, ijtimoiy va siyosiy barqarorlik aholining ma'lumotlilik darajasi u foydalanayotgan ta'lim xizmatlari sifatiga bog'liq.

Binobarin, tadqiqotchilar ta'lim xizmatlarini faqat iqtisodiy ne'mat sifatida tariflashar ekan, nazarimizda, ta'lim xizmatlariga xos muhim jihatni kishilarning ta'limga bo'lgan ma'naviy ehtiyojini qondirishni e'tibordan chetda qoldiradilar.

Ta'lim xizmatlari deganda biz faoliyatning muayyan bilimlar yig'indisini olish natijasida qo'lga kiritiladigan foydali samarani tushunamiz. Ta'lim xizmatlari deganda shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi, bozor va nobozor munosabatlarni mujassamlovchi aralash ne'matni tasavvur etamiz. Ta'lim xizmatlari turlari va sifati bo'yicha farqlanishni tushunamiz.

Iqtisodiy kategoriyaning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi jihatlarni qo'rib chiqmasdan, iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini ochib berish mumkin emas. Ta'lim xizmatlarining o'ziga

¹⁹ Щептин В.П., Хроменков. Н. А., Рябушкин Б.С. Экономика образования/ - М., МПУ, 1995. - С.24-26.

xos xususiyatlari oliy ta'lim bo'yicha ta'lim xizmatlari majmuasi ko'rinishida namoyon bo'lgani uchun, ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ular misolida tahlil qilamiz.

Xizmatlarni shu jumladan ta'lim xizmatlarini tadqiq qilishda klassik yondashuvni qo'llash uning xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi: xis etmaslik; ma'nbadan ajralmaslik; nomuntazamlik (geterogenlik); saqlanib qolmaslik; mulk - huquqi yo'qligi.

Ta'lim xizmatlarini buyum tovar bozoridan farqli ravishda ko'rib, his etib, uni asbob bilan o'lchab bo'lmaydi. Bundan tashqari, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish «iste'molchilik ishlab chiqarish» ko'rinishidagi faoliyat shaklida namoyon bo'ladi, ko'zga ko'rinadigan, buyum tarzidagi mahsulotni qoldirmaydi.

O'qish tufayli qo'lga kiritiladigan kapital bevosita o'lchab bo'lmaydigan intellektual kapitaldir. intellektual kapitalni ta'lim xizmatidan bahramand bo'lgan individning mahorati, fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati tarzida ko'rish mumkin. Egallangan ma'lumotning yagona moddiy dalili diplomdir.

Iqtisodiy adabiyotda ayrim tadqiqotchilar «his etilmaslik tushunchasini noto'g'ri talqin qilishadi. masalan, V.S.Bajenova ta'lim xizmatlarining his etilmasligini: «ular to'g'risidagi bilimni egallanmaguncha fikr hosil qilib bo'lmaydi»²⁰ – deb izohlaydi. Ushbu muallif U.G.Zinnurov fikriga qo'shilib: «ta'lim xizmatlari to'liq hajmda egallaguncha ularning mazasini bilib bo'lmaydi, ularni ko'rib ham, eshitib ham, hidlab ham bo'lmaydi»²¹, deb ta'kidlaydi.

Biz ushbu nuqtai nazarga qo'shilmaymiz, chunki, birinchidan ta'lim xizmatlarini «egallash ongni» aniqlash amalda qiyin masala hisoblanadi. Ushbu jarayon ko'p yillarni o'z ichiga olib, xizmatlar sifati esa faqat egallangan bilimlar yig'indisi bilangina emas, balki ko'proq bilimlar va ko'nikmalar yig'indisi «ma'lumotga» aylantirishdagi samara majmui bilan belgilanadi. Ikkinchidan esa, xizmatlar iste'molchisi foydalanilgan ta'lim xizmatlari to'g'risida fikrlar majmuini shakllantiradi. O'qish boshlangunga qadar iste'molchi u xizmatning nufuzi, o'qitiladigan fanlar majmuasi,

²⁰ Bajenova V.C. Непрерывное образование в условиях трансформации экономической системы / - М.: издательство РЭА, 2000. – С.28.

²¹ Зиннуров У.Г. Маркетинг в деятельности вузов: теория и методы решения / - М., издательство УГАТУ, 1993. – С.57.

ixtisoslarning mavjudligi va o'quv yurtlarining joylashuvi, o'qitishning qiymatiga kabi omillarni baholaydi. o'qish tugagach esa, u o'z hohish – istaklari va ishonchidan tashqari, bahramand bo'lgan xizmat sifatini, o'zi namoyish etgan bilim va ko'nikmalarning muayyan yig'indisiga boshqalarning munosabatiga qarab aniqlaydi.

Ta'lim xizmatlarining muxim xususiyati uning ta'lim berish manbaidan ajralmasligidir. muayyan oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan talaba fanlar yig'indisini, o'qitish va metodik ta'minlash saviyasini, auditoriyadagi va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar majmuini, ya'ni aynan ushbu muassasa xizmatlarini iste'mol qiladi. mijoz ta'lim xizmatlaridan foydalanar ekan, pirovard natijaga, bilimlar, ko'nikmalar majmuini egallashga va diplom olish bilan birgalikda ushbu xizmatlarning muayyan darajada sifati ko'rsatilishini talab qiladi.

«Mehnat yoki xizmat qanchalik ko'proq his qilinmaydigan bo'lsa, reklama maqsadida mijozga ularning sezish mumkin bo'lgan xarakteristikalarini shuncha ko'p ko'rsatish zarurligi to'g'risidagi ehtiyoj vujudga keladi»²². Darhaqiqat, talaba yoki abituriyent o'zi bahramand bo'layotgan yoki bahramand bo'lajak ne'matlar majmuini aynan ta'lim xizmatlarini ko'rsatayotgan oliy o'quv yurti bilan bevosita bog'laydi. oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan talaba o'qituvchidan ma'ruza va seminarlar bilan birgalikda konsultasiya, maslahat, malakaviy amaliyotni tashkil etish saviyasini etarli darajada bo'lishini kutadi. Shunday qilib, oliy o'quv yurti ta'lim bozoridagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun mijozlariga o'zi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlari haqida etarli miqdorda axborot berib, ularni ta'lim olganlik to'g'risida nafaqat moddiy dalillar (diplomlar, yaxshi o'quv korpuslari) bilan bir qatorda o'z malakasini oshirganligini nomoddiy tasdiqi (reytinglar, so'rovlar, universitet klubidagi va hamjamiyatlari mavjudligi) bilan ham tasdiqlashi lozim.

Ta'lim xizmatlarining uni ko'rsatish manbaidan ajralmasligining yana bir muxim jixati shundaki, bir fanni mustaqil o'rganishga qaror qilgan kishi o'z g'oyasini standart darsliklardan foydalangan holda ro'yobga chiqarishi mumkin. Biroq bunda u ta'lim emas balki bilim

²²Зиннуров У. Г. Маркетинг в деятельности вузов. теория и методы решения/ У.Г.Зиннуров-М.,Изд-во УГАТУ,1993.-С.5-7.

oladi. Turli oliy o'quv yurtlarining muayyan darajada ta'lim xizmatlari ko'rsatish, nufuzli degan nomning yuqori darajasiga etish va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini ko'rib chiqishda ushbu faktni anglash muhim hisoblanadi.

Yuqori malakali xodimlarning, o'quv xonalari, auditoriyalari, laboratoriyalarning, kutubxonalarning mavjudligi, kompyuter bilan ta'minlanganlik va o'quv jarayonini tarkibiy qismi xisoblangan boshqa elementlarining mavjudligi oliy o'quv yurti saviyasini va raqobatbardoshligini muxim belgilaydigan jihatlardir. Ushbu elementlar muntazam ravishda o'zgarib turadi, chunki xizmatlar bozori mehnat bozorining muayyan ko'nikma bilimga ega bo'lgan mutaxassislar soni va sifati borasidagi doimo o'zgarib turadigan ehtiyoji ta'siri ostida bo'ladi va ular tomonidan belgilanadi.

Ta'lim xizmatlarining yana bir muxim xususiyati ularning geterogenligi, ya'ni doimiy emasligi, o'zgaruvchanligidir. Amaliyot ko'rsatishicha xizmatlar sifati ustun darajada xodimlarning malakasi, ularning kasbiy tayyorgarligi va amaliyot ko'nikmalari bilan belgilanadi. Ushbu xususiyatlarning o'zgaruvchanligi esa kishining o'ziga, axborot yoki aloqaning mavjudligiga bog'liq.

Ta'lim xizmati vaqt o'tgan sayin o'zgara boshlaydi. o'nlab yillar mobaynida bitta fandan saboq bergan o'qituvchi bir mavzuda ikki marta ma'ruza qilganida bir xil saviya va sifatga erisha olmaydi. Fan haqidagi bilimlar muntazam ravishda kengayib to'ldirib boriladi. dars sifatiga o'qituvchining kayfiyati, tashqi muammolar va boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. U o'z navbatida talabani shaxsiy muammolari, kayfiyati, jismoniy holati o'qituvchining ma'ruzasini qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada bir necha yil davomida birgalikda tahsil olgan muayyan miqdordagi talabalardan bir xilda tayyorlikdan o'tgan bilimga ega ikkitasini ajratishning imkoni bo'lmaydi, chunki har bir talaba o'z shaxsiy qobiliyatiga, qiziqishiga va maqsadiga ko'ra nimalardir ko'proq yaxshiroq o'zlashtirgan bo'ladi. Shu bois: «Jamg'arilgan ilmiy – ta'limiy salohiyatning bir turli darajasi ta'lim xizmatlari sifati turli darajada bo'lishini belgilab beradi, shu sababli ixtisosligi bo'yicha talabalarni tayyorlash saviyasi aksariyat xollarda bir – biridan keskin farq

qiladi.²³ Bunday vaziyatda ko'rsatilayotgan xizmatlar bir mutaxassislik doirasida ham bir xil bo'lmasligi ob'ektiv jarayon hisoblanadi.

Ta'lim xizmati ko'rsatish jarayonida sub'ektiv omilning o'rnini yuqoriligi va bu xizmatlarining muntazam emasligi o'quv yurtida bir qaraganda, bir – biriga zid ikki talabni bajarishni talab qiladi.

Birinchidan, yaxshi oliy o'quv yurti ta'lim standartlarini yuqori maksimal darajaga etkazib va o'qituvchilar tayyorgarligining har xilligi, birgina o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sub'ektiv jihatdan turlicha bo'lishini yuzaga keltiradigan tengsizlikni imkon darajasida kamaytirib, dars berish saviyasini yuqori bo'lishiga erishish lozim.

Ikkinchidan esa, jamiyatning iqtisodiy jihatdan barqaror sur'atlarda rivojlanishi oliy o'quv yurtidan tashqi muhitda, shu jumladan mehnat bozorida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga tezlik bilan moslashishini talab qiladi.

Xorij va mamlakat oliy o'quv yurtlari tajribasining tahlili bunday sharoitda, bir tomondan, yirik, taniqli olimlarni ishga jalb etib, ulardan barqaror rivojlanadigan va moslashuvchan jamoani shakllantira olganlar, ikkinchi tomondan esa, obro'li ilmiy – tadqiqot institutlarining, laboratoriyalarining, markazlarning ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi uchun yaxshi imkoniyat yarata olganlarigina eng yaxshi natijalarga erishishlari mumkinligini ko'rsatmoqda.

Ta'lim xizmatlarining yana bir o'ziga xos xususiyati uning saqlanib qolmasligi. xizmat ko'rsatish sohasining ko'plab tarmoqlari uchun saqlanib qolmaslik istalgan ko'rsatilgan xizmatdan bahramand bo'lishda natijalarning uzilib qolishini bildiradi. Ta'lim xizmatlari bozorida vaziyat butunlay boshqacha bo'lib foydalanilgan xizmatning saqlanib qolmasligi uzaytirilgan xarakterga ega bo'ladi. masalan, talabalarga konkret fanlargina emas, balki fikrlash, xulosa chiqarishni ham o'rgatishadi. xizmat ko'rsatish tugagach, oliy o'quv yurtlari o'z «mijozlari»da o'zini o'zi barkamol shaxs sifatida shakllanishiga doimiy intilishni uyg'otishadi. Shu ma'noda ta'lim xizmatlarining saqlanib qolmasligi bu xizmatdan foydalanishdagi samaraning pasayishini emas, balki uning muntazam oshib borishini,

²³Зиннуров У. Г. Маркетинг в деятельности вузов: теория и методы решения/ У.Г. Зиннуров-М.,Изд-во УГАТУ,1993.-С.7.

uzluksiz ta'lim asosida tobora ko'proq bilimlarni egallashini bildiradi.

Ta'lim xizmatlari saqlanib qolmaslikning ma'nosi uni ko'rsatishni bir martalikdan iborat bo'ladi. Ta'lim xizmatlarini iste'mol nuqtai nazaridan saqlanib qolmaydigan mahsulot sifatida tavsiflash mumkin. chunki, bir tomondan, insonda esdan chiqarish xususiyati mavjud, boshqa tomonidan esa, olingan axborot jadallik bilan ma'naviy eskiradi. Ta'lim xizmatlarini saqlash va tashish mumkin emasligini ta'lim muassasalari va ushbu xizmatlar bozori tarqalib ketganligi hamda mahalliyliги fakti tasdiqlaydi.

Ta'lim xizmatlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonlarining ajralmasligini ta'lim xizmatlarining asosiy tavsiflaridan biri sifatida keltirish mumkin. Ta'lim xizmatlarini ishlab chiqarish xususiyati ularni saqlab bo'lmazligidan kelib chiqadi. Buyurtmachi paydo bo'lgan vaqtda xizmat ko'rsatish zarurati yuzaga keladi. Shu bois ta'lim xizmatlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilishni bir – biridan ajralgan holda ko'rib chiqib bo'lmaydi.

Bunday o'zaro aloqada sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi aloqa darajasi farq qilishi mumkin, chunki ba'zi xizmatlar xaridor mavjud bo'lishini talab qilmaydi. Bunda ushbu xizmatni ko'rsatuvchi texnik jihatdan malakali xodimlarning roli katta bo'ladi. Qolgan ta'lim xizmatlari uchun esa, aksincha, sotuvchi bilan mijoz o'rtasidagi aloqaning jipsligi xos bo'lib, bu holat xizmatlar sifatiga ehtiyojni va xaridorlar moyilligini oshiradi.

Ta'lim xizmatlarini yaratish va iste'mol qilish jarayonlari, moddiy – amaliy ishlab chiqarishdan farqli ravishda, zamonda (vaqt jihatidan) birlashgan. o'qituvchilar tarkibi tomonidan ta'lim xizmatlarining yaratish jarayoni ayni mahalda, mijoz tomonidan ularning iste'mol qilishning ilk bosqichi sifatida voqe' bo'ladi.

Ta'lim xizmatlarining barcha xizmatlar bilan umumiy bo'lgan navbatdagi xususiyati unda mulk huquqining yo'qligidir. moddiy tovardan farqli o'laroq, ushbu xizmatdan bahramand bo'lgan kishi muayyan vaqt ichidagina uning sohibi bo'ladi.

Ta'lim xizmatlari barcha xizmatlarga xos umumiy jihatdan tashqari, ularni boshqa xizmatlar va moddiy tovarlardan farqlovchi quyidagi o'ziga xos jihatlariga ega: ta'lim xizmatlarini individuallashtirish; ta'lim xizmatlarining aralash ne'mat sifati mavjud bo'lishi; ta'lim xizmatlarining umumiyliги; ularni ishlab

chiqarish (ko'rsatish) ga nisbatan uzoq davom etishi; ta'lim xizmatini ko'rsatishga haq to'lashni normalashni qiyinligi; iste'molchi yoshining ta'lim xizmatlari miqdor – sifat darajasiga muvofiqligi; ijtimoiy iste'mol.

Ta'lim xizmatlarini individuallashtirish shundan iboratki, bu xizmatlarning har bir sub'ekti ishlab chiqaruvchisi va iste'molchi sifatida individualdir. Ta'lim xizmatlari, boshqa xizmatlardan iste'molchiga ko'proq yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi, chunki ta'limda ishlab chiqarishni rivojlanishning intensiv shakllari ustun turishi xosdir.

Ta'lim xizmati ijtimoiy va aralash ne'matlar tarzida mavjud bo'ladi. Ta'lim xizmatlari, iste'mol qilish jarayonida, insonning, davlatning, firmalarning, umuman jamiyatning ehtiyojlarini qondiradi.

Ta'lim xizmatlarining umumiyliги xususiyati shundan iboratki, har bir kishi ushbu xizmatlardan bahramand bo'lishga ehtiyoj sezadi va bunda xizmatlar hajmi va sifati muxim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ta'lim xizmatlari, boshqa xizmatlardan farqli ravishda, muayyan davr ichida ko'rsatiladi. Shu bois ularga ishlab chiqarishga nisbatan uzoq vaqt davom etishi xosdir. Ayni mahalda individual iste'molchiga ushbu xizmatlarni ko'rsatish vaqti kasbiy tayyorgarlik sifati va kelajakda kutiladigan daromad darajasi bir – biriga to'g'ridan - to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Ta'lim sohasida ta'lim xizmatlari ko'rsatishga haq to'lashni normalashning qiyinligi ta'lim xizmatlarining ajralmas o'ziga xos xususiyatidir. Bugungi kunda o'qituvchilar ishlab turgan stavkalarining nisbatan bir xilligi mamlakatda umumiy, tenglashtiruvchi tizim amal qilishda davom etayotganidan dalolat beradi. Ko'plar tomonidan e'tirof etilgan darslik chiqarilgan, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan, o'qitishning eng yangi, ilg'or pedagogik, interaktiv vositalari hamda usullarini rivojlantirayotgan o'qituvchi oliy o'quv yurtida yil bo'yicha o'zi bilan baravar ishlagan va bir xilda lavozimni egallagan boshqa oddiy o'qituvchi bilan teng ish haqi olishi mumkin.

Ish haqi miqdoridagi ayrim xilma –xilliklar oliy o'quv yurtlari rahbarlari tomonidan kiritiladi. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlari o'z etakchi o'qituvchilari taniqli olim yoki nufuzli darsliklar mualliflari bo'lishdan etarli darajada manfaatdor emas. Bunday munosabatning

sababi ustun darajada rahbariyatning «oʻrtacha» jamoani shakllantirishga qaratilgan uslubi pirovard natijada oliy oʻquv yurtiga jiddiy naf keltirmaydi va taʼlim bozorida raqobat kurashiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Isteʼmolchi yosh xususiyatlarining taʼlim xizmatlari miqdor – sifat darajasiga muvofiqligi taʼlim xizmatlarini boshqa xizmatlar turlaridan ajratib turadi. Ushbu xususiyat taʼlim xizmatlaridan foydalanish taʼlim xizmatlari isteʼmolchisining yoshi bilan ham belgilanadi, chunki yoshga qarab isteʼmolchining imkoniyatlari bir muncha kamayadi, tayyorgarlik uchun vaqt va resurs sarfini oshirish zarurati yuzaga keladi. Zero, taʼlim ham oʻzgarib, «bir umrga taʼlim olishdan butun umr mobaynida taʼlim olishga» oʻtiladi.

Taʼlim xizmatlarini ijtimoiy isteʼmol qilishni taʼlim xizmatlarining navbatdagi xususiyati deyish mumkin. Taʼlim xizmatlaridan bahramand boʻlish alohida kishi bilan birgalikda butun jamiyatning «sifati»ni oshishiga taʼsir koʻrsatadi. Taʼlim xizmatlari isteʼmolchilarining asoslari oddiy bozor iqtisodiy subʼektlarining asoslariga qiyoslaganda, ancha kuchli ekanligini ajratib koʻrsatish zarur. U iqtisodiy subʼektning ijtimoiy qatlamini turmush tarziga qoʻshilish imkoniyati bilan bogʻliq.

Taʼlim xizmatlarini koʻrsatish shaxsga muayyan dastur boʻyicha beriladigan umumtaʼlim va maxsus bilimlar, koʻnikmalar va mahoratning muayyan hajmidan iborat.

Taʼlim ishlab chiqarish boshqa tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishdan «...faoliyat turiga, faoliyat usuliga va ichki qonunlarga koʻra» farqlanadi. Bunda u taʼlimni tashkil qilishning tizimli, maʼmuriy va mintaqaviy darajasini oʻz ichiga oladi. Taʼlim xizmatlarining oʻziga xos xususiyatlari ularni ishlab chiqarish texnologiyasini va ijtimoiy shaklini inʼikos ettiradi.

Taʼlim xizmatlari ishlab chiqarishga rivojlanishning intensiv shakli xos boʻlib u shaklning sifat salohiyati oʻzgarib, oʻqitish jarayonida yanada yuqori darajaga oʻsib oʻtishini taqozo etadi. Taʼlim ishlab chiqarish monopol xususiyatga ega boʻlib, bu «ishlab chiqarish texnologiyalari oʻziga xosligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot xususiyati va uni isteʼmol qilishni maxsus xarakteri bilan» belgilanadi.

Taʼlim xizmatlarini ishlab chiqarish va isteʼmol qilish jarayonining bir vaqtda sodir boʻlishi faoliyat sifatidagi xizmat

ko'rsatish jarayoni natijasi, foydali samarasi bilan mos tushishiga olib kelishi lozim. Foydali samara esa, o'z navbatida, iste'molchini ko'rsatilgan xizmatdan qoniqish darajasini ko'rsatadi. Ta'lim xizmatlari ko'p sub'ektlar tomonidan iste'mol qilinishi tufayli iste'molchilar tanlovining murakkabligini uning xususiyati sifatida baholash mumkin. Bu holat ta'lim xizmatlari iste'molchilari sub'ektlarini ushbu xizmatlarning iste'mol xususiyatlari to'g'risida to'liq axborotga ega emasligi bilan bog'liq.

Bundan tashqari, iste'molchilar tarkibi, ta'limning va ta'lim xizmatlarining tuzilishi kam o'rganilganligi tufayli iste'molchilar ko'pincha ta'lim xizmatlarining foydaliligini bilvosita baholash imkoniyatiga ega bo'lishmaydi. Shu sababli, madaniyat muassasalari, madaniyat jamoat uyushmalari, davlat muassasalari bo'lgan iste'molchilarni ajratish zarur, deb hisoblaymiz.

Ta'lim xizmatlari inson qobiliyatida ashyolik xususiyatini kasb etgani uchun u ashyoviy shaklga emas, balki o'zining moddiy vositachisiga aylanadi. Ta'lim xizmatlari moddiy vositachisini taqozo etgan paytda ta'lim ishlab chiqarilishi natijasidan, iste'molchini funksional savodliligi, ya'ni ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi vujudga keladi.

Individ o'zining funksional savodxonligini ashyolar olamini sotib olish imkoniyati orqali iste'mol qiladi. Funksional savodxonlikning jamiyat tomonidan iste'mol qilinishi jarayonida u individning ijtimoiy hayotga qo'shilishi orqali ifodalanadi. ishlab chiqarish kasbiy tayyorgarlikni mehnat xizmatini taklif etuvchi ish kuchidan foydalanish orqali iste'mol qiladi. Nihoyat, yashash muhiti ta'limni insoning tabiatini asrash imkoniyati, ya'ni tarixiy voqealarning o'zgarishiga olib keladigan xatti - harakat qilmaslik orqali iste'mol qiladi.

Fikrimizcha, ushbu holat ta'lim xizmatlari birlamchi va pirovard iste'molchilar uchun turli sifat, mazmunga egaligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, ta'lim xizmatlarining ularni ishlab chiqarish jarayoni orqali amalga oshiriladigan birlamchi iste'moli ushbu xizmatlarni (personifikasiyalashuvini) vujudga keltiradi. Pirovard iste'mol esa ta'lim xizmatlarining personifikasiyalashuvini bekor qiladi. Bunda birlamchi iste'molchi tomonidan iste'mol qilinadigan ne'matlar miqdori kamaymaydi.

Ta'lim xizmatlarini iste'mol qilish jarayoniga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Ijtimoiy – iqtisodiy (aholining turmush darajasi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori va b.);

2. Ijtimoiy – siyosiy (mamlakatdagi siyosiy holati, mojarolar va b.);

3. Tabiiy – iqlim (mamlakatning geografik joylashuvi, uning hududiy uzunligi, mintaqaviy xususiyatlari va b.);

4. Tarixiy (milliy an'analar, urf – odatlar, did, madaniy rivojlanish darajasi, moda va uning o'zgarish tezligi va b.).

Ta'lim xizmatlari iste'moliga ta'sir ko'rsatadigan omillar dinamikasi turlicha bo'ladi. Ayrim omillarining ta'siri jiddiy namoyon bo'lsa, boshqalarining ta'siri yillar va o'n yillar mobaynida to'plana borgani sari namoyon bo'ladi.

Keyingi bosqich – ta'lim xizmatlarini taqsimlash bosqichi turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. oliy o'quv yurtida turli ixtisosliklar bo'yicha taqsimot talabalarining «o'qish» istagi va qobiliyatiga ko'ra yuz beradi. mutaxassislik yo'nalishini to'g'ri tanlash, ushbu individning rivojlanish imkoniyati bilan mos tushsa, kishining kelgusida ishga joylashishini, ishning samaradorligi va uning turli ehtiyojlarini qondirishini ustun darajada belgilab beradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mehnat bozorida mutaxassisliklarning cheklangan qismiga, asosan yuridik va iqtisodiy yo'nalishlarigagina ehtiyoj katta bo'lgani uchun ta'lim xizmatlari bozorida ushbu mutaxassislarni egallashga ehtiyoj ortib ketdi. Shu bois talab katta bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim xizmatlarining taqsimlanishi tanlov doirasida olib borilib, talabaning biron yo'nalishi bo'yicha o'qish istagiga doim mos kelavermasligi mumkin.

Ta'lim xizmatlarini almashuv bosqichi boshqa turdagi tovar va xizmatlar almashinuviga nisbatan qator xususiyatlariga ega. Almashuv jarayonining muhim farqi uning ikki bosqichdan iborat ekanligidir. Birinchi bosqichda ta'lim muassasasi talabalarga xizmat ko'rsatadi, ular esa, o'z navbatida, kuch – quvvat sarflab, o'qish uchun moddiy sarf – xarajatlar qilishadi. ikkinchi bosqichda ma'lum ta'lim tayyorgarligidan o'tgan kishi uni mehnat qilish jarayonida ish haqiga almashadi. Bunda ishlovchi oladigan ish haqi uning ushbu

shaxsiy ma'lumot darajasini shakllantirish uchun sarflangan vaqtga proporsional bo'lishi darkor.

Ta'lim xizmatlari almashuvidagi ikki bosqich jahon bozorida yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi bosqichga taaluqli halqaro ta'lim xizmatlari almashuvi talabalarni xorijiy o'quv yurtlarida o'qitish, xorijlik fuqarolarni mamlakat ta'lim muassasalariga qabul qilish tarzida namoyon bo'ladi. Ikkinchi bosqich esa mamlakatdan tashqariga ishlash uchun chiqib ketish, o'z vatanidagi o'quv yurtlarida muayyan darajada ta'lim olgan shaxslarning o'z mehnat qobiliyatini xorijdagi ish joylarida ko'rsatish, boshqa tomondan esa, o'z vaqtida biron – bir darajadagi ta'lim xizmatlaridan bahramand bo'lgan chet ellik fuqarolarning mamlakatga ishga kelishidan iborat.

Shuningdek ta'lim xizmatlari xalqaro almashuvining salbiy jixatlari xam mavjud. Gap «aqlning ketib qolishi» haqida bormoqda. masalan, o'z mamlakatida ta'lim olgan O'zbekiston fuqarosi ta'lim xizmati xalqaro almashinuvida ishtirok etib, olgan bilimini xorijda ishga soladi.

Ta'lim xizmatlari, o'z xususiyatiga ko'ra, ta'lim bozorida oldi – sodd ob'ekti bo'lgani holda, to'laqonli bozor munosabatlarini shakllantirish asosi sifatida voqe' bo'ladi, shaxsning kamol topishi va ijtimoiylashuvining muhim omili, mamlakat intellektual va iqtisodiy salohiyatini takror ishlab chiqarish hamda rivojlantirish manbai bo'ladi.

Ta'lim bozori sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish uchun ta'lim xizmatlarini ishlab chiqarish va ish kuchini takror ishlab chiqarish uchun shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalik yuritishning bozor tizimida boshqa bozorlarni: iste'mol tovarlari bozorini, tovar va moliya bozorlarini va barqaror iqtisodiy rivojlantirishni taqozo etadi.